



Научно-образовательный электронный журнал

ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ

Выпуск №24 (том 6)
(март, 2022)

ФНО автoра: *Maxmudova Dilafroz Baltabqiyevna*

Andilon davlat universiteti

Название публикации: «TA'LIMGA ZAMONAVIY YONDASHUV VA INNOVATSIYALAR - DAVR TALABI»

Аннотасија: Vazirlar Mahkamasining «Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori asosida PIRLS, TIMSS, PISA va TALIS xalqaro tadqiqotlarini O'zbekistonda joriy etilishi belgilab qo'yilgan bo'lib, mazkur tadqiqotlarni joriy etish maqsadida Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etilgan. Mazkur xalqaro baholash dasturlari va ular doirasidagi tadqiqotlar Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan muayyan davriylik asosida dunyo mamlakatlari bilan hamkorlikda tashkil etiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, pedagogika, tadqiqot, ta'lim sifati, nazorat qilish, talablar, STEAM metodi, baholash tizimi

Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bilan OECD hamda IEA tashkilotlari o'rtasida imzolangan kelishuv hujjatlariga binoan O'zbekiston Xalqaro o'quvchilarni baholash PISA-2022 (avvalgi PISA-2021) hamda o'quvchilarning matnmi o'qib tushunish darajasini baholash xalqaro dasturi PIRLS-2021 da ishtirok etishga kirishilgan. Ta'limga zamonaviy yondashuv va innovatsiyalar - davr talabi bo'lganligi sababli o'quvchi va o'qituvchilarga quyidagi talablar qo'yilmoqda.

O'QUVCHIGA QO'YILAYOTGAN TALABLAR:

- a) Ilmiy bilimlar bilan qurollanish
- b) Ma'naviy tafakkurni oshirish
- s) Zamonaviy ped texnologiyalar bilan qurollanish
- d) Maktab ta'limini jahon tajribasiga tayangan holda tashkil qilish

O'QITUVCHIGA QO'YILAYOTGAN TALABLAR:

- a) Tinimsiz izlanish
- b) Chuqur bilim egasi bo'lish
- s) Fidokorona mehnat
- d) Kuchli mahorat
- d) AKT va chet tillarini o'rganish.

Bu talablarni amalga oshirish metodologiyasi O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasiga oid qonunlar va qarorlardir :

Qonunlar

1.O'RQ-461-1 29.08.1997 "Ta'lim to'g'risidagi Qonun.

2.O'RQ-463-1 29.08.1997 "Kadrlar tayyorlash milliy dastur Qonuni"

Prezident farmonlari, qarorlari

3.PF-5538 05.09.2018 "Xalq ta'limi boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"

4.PK -3907 14.08.2018 "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash ularga ta'lim tarbiya berish tizimining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora tadbirlari to'g'risida"

5.PF-4947 07.02.2017 O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida

Ta'limga zamonaviy yondashuv va innovatsiyalarning maqsadi

Maktabni ilmiy - metodik jihatdan samarali boshqarishda quyidagicha:

- 1.Ta'lim sifatini yaxshilash maqsadida yangi DTS va o'quv dasturlar yaratish
- 2.Rahbarlik faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etish
- 3.O'qituvchilarning pedagogik faoliyatini to'g'ri tashkil etish
- 4.Xalqaro tadqiqot STEAM usulini bosqichma-bosqich ta'limga joriy etishdir.

STEAM – maktab o'quvchilarini yangi o'qitish metodikasi bo'lib, unda tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika fanlarini o'qitishga asoslanadi. Uning afzalliklari:

- 1.Ta'limni o'quv fanlari bo'yicha emas mavzular bo'yicha integratsiyalash
- 2.Ilmiy texnik bilimlarni real hayotda qo'llash
- 3.Faol kommunikatsiya asosida yoki jamoada ishlash
- 4.Texnologiya innovatsion hayotga tayyorlash
- 5.O'z kuchiga ishonch, keyingi 60 yil davomida texnologiya jadal rivojlanishi uchun asos bo'ladi.

Shuning uchun respublikamizda zamonaviy maktablar yaratish rejasi qoyildi.Intraktiv ta'lim xizmatlarini ko'rsatish uchun portal ishlab chiqildi.

Maktab o'quvchilarining identifikatsion karta joriy etilib ularni bank va boshqa tizimlarga integratsiyalash imkoni yaratildi. Maktabning elektron ma'lumotlar bazasi va elektron jurnal va kundaliklar, boshqa elektron xizmatlari ochildi.

VM ning 2018-yil 8-dekabrda Xalq ta'limini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora tadbirlar to'g'risidagi 997-sonli qarori asosida, Xalqaro tadqiqotlarda O'zbekiston Respublikasi ta'limining ishtiroki sababli "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Unga binoan o'qish, matematika, tabiiy fanlar yo'nalishidagi fanlardan DTS ga o'quv dasturga o'quv adabiyotga o'zgartirish kiritildi. PISA baholash dasturi yo'nalishidagi savollar milliy bazasini yaratildi. O'quvchilarning savodxonligini baholashning milliy tizimini yaratildi.

Endilikda, TIMSS-2023 xalqaro dasturida qatnashishga kirishildi. Bu borada IEA tashkilotining «Xalqaro matematik va ilmiy tadqiqotlar (TIMSS) 2023 tendensiyalarida qatnashish uchun rasmiy taklifi»ga muvofiq O'zbekistonning TIMSS dasturida ilk marotaba qatnashishi masalasida Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi o'rtasida olib borilgan muloqotlar asosida IEA rahbariyatining dastlabki roziligiga erishildi.

IEA rahbariyati O'zbekistonning ushbu tadqiqotda qatnashishidan mamnun ekanligini aytib, O'zbekistonning ta'lim sharoitiga TIMSSning qaysi turi mos kelishi haqida maslahatlar berdi. Bundan tashqari, IEA 2021 yil fevral oyida Germaniyaning Gamburg shahrida o'tkazilishi rejalashtirilayotgan milliy tadqiqot koordinatorlarining birinchi yig'ilishiga taklif qildi va Boston kolleji mutaxassislari bilan turli xil baholash modellarini muhokama qilish, tadqiqotlar yo'nalishlarining afzallik va kamchiliklari haqida muhokamalar olib borish uchun qulay imkoniyat yaratib berilishi haqida ma'lum qildi.

TIMSS (Trends in International mathematics and science study) 4- va 8- sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash dasturi bo'lib, bu tadqiqot to'rt yilda bir marta o'tkaziladi.

TIMSS xalqaro baholash dasturida 4- va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo'yicha egallagan bilim darajasi va sifatini solishtirish hamda milliy

ta'lim tizimidagi farqlarni aniqlash bilan bir qatorda, qo'shimcha ravishda maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo'yicha berilayotgan ta'lim mazmuni, o'quv jarayoni, ta'lim muassasasining imkoniyatlari, o'qituvchilar salohiyati, o'quvchilarning oilalari bilan bog'liq omillari o'rganiladi.

TIMSS dasturi o'zining birinchi tadqiqotini 1995 yilda boshlagan bo'lib, 2019 yilga qadar har to'rt yilda 1999, 2003, 2007, 2011, 2015 va 2019 yillarda tashkil etib kelindi. Navbatdagi 8-davriylik 2023 yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Dasturda qatnashayotgan davlatlar soni ham tobora ortib bormoqda, buni 2015 yildagi TIMSS tadqiqotida 57 ta mamlakat qatnashgan bo'lsa, 2019 yilda bu ko'rsatkich ortib, 60 dan ortiq davlatni tashkil etganida ham ko'rish mumkin. TIMSS-2015 tadqiqot natijalariga ko'ra, AQSH, Singapur, Gonkong, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Rossiya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarning ta'lim tizimi eng yuqori ko'rsatkichlarni egallagan.

PISA 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematik va tabiiy-ilmiy savodxonlik darajasini baholasa, PIRLS 4-sinf o'quvchilarining matnini o'qish va tushunish darajasini baholaydi. TIMSS xalqaro baholash dasturi esa, 4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy-ilmiy savodxonlik darajasini baholaydi. PIRLS va TIMSS bir-birini to'ldiruvchi dasturlar deb e'tirof etish mumkin.

PISA va TIMSS tadqiqotlarini, ularning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida o'quvchilarning matematik savodxonligini baholashini inobatga olinsa, Respublikamizda matematika sohasini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlarga ham hamnafas bo'ladi deb aytish mumkin.

O'zbekiston TIMSS va boshqa xalqaro tadqiqotlarda qatnashish orqali rivojlangan mamlakatlar tajribalarini O'zbekiston ta'lim tizimida qo'llash, o'z natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash imkoniyatlariga ega bo'ladi.

Tadqiqotda, O'zbekistonning 4- va 8-sinf o'quvchilari boshqa davlatlardagi tengdoshlariga nisbatan matematika va tabiiy fanlardan savodxonligi qay darajada yuqori? Matematika va tabiiy fanlar 4- va 8-sinf o'quvchilari uchun qiziqarli fanmi? Oila tomonidan farzandlarga matematikani va tabiiy fanlarni o'zlashtirishda qanday

hissa qo'shilmogda? Bugungi kunda bizning mamlakatimizda matematika va tabiiy fanlarni o'qitish jarayoni qanday tashkil etilgan? O'zbekiston matematika va tabiiy fanlar o'qitish jarayonining boshqa davlatlarga nisbatan o'ziga xosligi bormi, agar bor bo'lsa u nimalarda namoyon bo'ladi? Mamlakatimizda matematika va tabiiy fanlarni o'qitish bo'yicha o'qituvchilar metodlari boshqa mamlakatlar o'qituvchilari metodlaridan nimasi bilan farq qiladi? kabi asosiy masalalar o'rganiladi va tadqiq etiladi.

Tadqiqotning har to'rt yillik davriyligida uzluksiz ravishda ishtirok etish global miqyosda mamlakatimiz ta'lim tizimining samaradorligini kuzatib borish imkonini beradi. Ushbu dasturlar O'zbekiston Respublikasi milliy baholash tizimini takomillashtirish, kompetensiyaviy baholash tizimini joriy qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Prezident va hukumat tomonidan ta'lim tizimi oldida aniq vazifalar qo'yilgani, bu shunchaki ta'lim holatini nazorat qilish emas, balki ta'lim tizimining qanday ahvoldaligi haqida ma'lumot beradigan, ta'lim sifatini yaxshilashga ko'maklashadigan va uni yanada raqobatbardosh qiladigan yo'nalish ekanligi hammaga tushuntirilganligiga amin bo'ldik.

Bizning nazarimizda, birgalikda o'tkazayotgan seminarlarimiz O'zbekistonning raqobatbardoshligini global oshirish mexanizmi hisoblangan xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishga tayyorlash uchun juda muhim. Umid qilamizki, ushbu seminar doirasida muhokamadan so'ng o'qituvchilar malakasini oshirish tizimini yaratishga kelishib olamiz. O'zbekiston ta'lim inspeksiyasi va vazirlik tomonidan o'zbekistonlik va rossiyalik pedagoglar, metodistlar va ta'lim sohasi mutaxassislari o'rtasida o'zaro tajriba almashish uchun platforma yaratildi. Ushbu platforma orqali biz tajriba almashish va turli mamlakatlarning natijalarini o'rganish, tadqiqotga qanday tayyorgarlik ko'rishlarini tahlil qilish va mamlakatni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlash vositalarini birgalikda ishlab chiqishni rejalashtirmoqdamiz.

Ishonchim komilki, o'zbekistonlik hamkasblarimning professional darajasi, qiziqishi va motivatsiyasi yaqin orada yaxshi natija beradi. SHuning uchun ham men hamkorligimizni yuqori baholay olaman.

Yaxshi natijalar ko'rsatish uchun hech bo'lmaganda 2 maqsadga ega bo'lish kerak: birinchisi, o'qituvchilar va ular ishlaydigan, foydalanadigan materiallarni tayyorlashdir. Zero xalqaro tadqiqotlarda bejizga maktablarda ta'lim sifati o'qituvchilarning kasbiy darajasiga bog'liq, deb aytishmaydi. Demak, o'qituvchilarni tayyorlashga mablag' ajratish va yangi o'quv materiallarini yaratish kerak. Tegishli vazirliklar malaka oshirish tizimiga investitsiya kiritishi, moliyalashtirishi va uslubiy qo'llab-quvvatlash uchun shart-sharoitlar yaratishi lozim.

Xalqaro tadqiqotlardagi natijalarni yaxshilash n o'qituvchilarni maqsadli tayyorlash va ta'lim jarayonida o'qitish metodikasi va ustuvor tamoyillarni o'zgartirish zarur. Buning uchun biz o'qituvchilarni tayyorlashimiz, rivojlantiruvchi ta'limning yanada faol tizimini tatbiq etishimiz va o'qituvchilarni ta'lim jarayonida yanada muvaffaqiyatli foydalana oladigan materiallar bilan ta'minlashimiz kerak. Bu eng muhimi va siz hozir to'g'ri yo'ldasiz, ancha oldin PISA va PIRLS tadqiqotlari topshiriqlari xususiyatlarini ochib beruvchi materiallar bilan to'plamlarni chop etdingiz. Endi esa bu vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirib, paydo bo'layotgan muammolarni hal qilish ustida ishlash kerak.

PISA natijalari 2023 yil oxirida e'lon qilinadi. Menimcha, bu juda muhim qaror. Mamlakatlar xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishlari kerak, chunki ular bizning ichki holatimizdan emas, balki xalqaro standartlar muqtafi nazaridan tashqi baho berishadi. Bu birinchisi.

Ikkinchidan, ilk yillardan qandaydir juda yaxshi, ijobiy natijalar olish haqida gapirib bo'lmaydi. Rossiya 2000 yildan beri xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etib kelmoqda va PISA bo'yicha bizning natijalar o'rtacha xalqaro darajadan past edi. Faqat 18 yil davomida ta'limga katta sarmoya kiritish orqali PISA tadqiqotidagi natijalarimiz Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) ning o'rtacha ko'rsatkichlariga yaqinlashdi. Buni qanday izohlash mumkin? Bu bizning rus maktabimiz (qaysidir ma'noda sovet maktabi) ko'proq fan natijalariga, ya'ni yosh avlodga yaxshi, chuqur va uzoq muddatli bilimlarni berishga e'tibor qaratganligi bilan izohlanadi. Ijodkorlikni rivojlantirishga bunaqa ehtiyoj yo'q edi, olingan

bilimlar barcha o'quvchilar tomonidan turli hayotiy vaziyatlarda ishlatilishini ta'minlash uchun vaqt ham bo'lmagan.

Mamlakatingiz ushbu tadqiqotlarda ilk marotaba ishtirok etayotgani uchun hozircha aniq natijalar yo'q va bir narsa deyish qiyin. Lekin bu bo'yicha o'z taxminlarimni aytishim mumkin. Matematika va tabiiy fanlar bo'yicha natijalar o'qish savodxonligi bo'yicha ko'rsatkichlardan yuqori bo'ladi deb o'ylayman. Gap shundaki, PISAda o'qish savodxonligini baholash vositalari keskin o'zgargan. Bu borada Rossiya natijalari ham 2018 yilda bir oz yomonlashganini ko'rdik. SHuningdek, o'quvchilarning test sinovlarini baholash uchun yangi baholash formati (kompyuter platformasi) joriy qilinibgina qolmay, balki o'quvchilarga butunlay boshqa matnlar taklif etildi: ko'p o'lehovli matnlar, ziddiyatlarni aniqlash, nuqtai nazarni yoki manbalar sifatini aniqlash kerak bo'lgan matnlar. SHuning uchun bu yo'nalishda o'zbekistonlik maktab o'quvchilarining natijalarida uncha katta siljish bo'lmasligi mumkin, deb o'ylaymiz. Lekin umid qilamizki, matematika va tabiiy fanlardan, Qozog'iston, Ozarbayjon va Gruzuya kabi mamlakatingiz ham dastlabki bosqichlarda yaxshi natijalar ko'rsatadi. Biz bundan umidvormiz

Foydalangan adabiyotlar ro'yhati:

- 1.Mirziyoev.SH.M. "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz". T2017 y.
- 2.Mirziyoyev Sh. M. "Erkin va Farovon, demokratik O'zbekiston davlatini barpo etamiz". T, 2016y
3. Mirziyoyev Sh. M "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq faravonligi garovi" T2016y
- 4.Sulaymonov A. Maktabgacha t'lim muassasalarida haykaltaroshlik mashg'ulotlari. Bolalarda plastic materiallardan shakl hosil qilish malakalarini shakllantirish. /Tarbiyachilar uchun ilmiy-metodik qo'llanma. T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institute -T 215-120b
- 5.Maxmudova O.A, Maxmudova S.A "Maktabgacha ta'lim tizimida plastic materiallar bn ishlash texnologiyalari"/ O'quv qo'llanma. "NISO POLIGRAF"-T.:2019-120-b
- 6.Amirova G.A, Sulaymonov A.P., Djuraeva B.R Maktabgacha ta'lim muassasalarida applikatsiya mashg'ulotlari. /Ilmiy-metodik qo'llanma. Fan va texnologiya.-T,2014,100b
- 7.Maxmudova O.A Tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi. O'UM. Nizomiy nomidagi TDPU-T.,2018-155-b

8. "Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash". G.Q.Jalolova, metodik tavsiya. Toshkent, 2004 yil/